YASSAVIYLIK AN'ANASI VA SULAYMON BOQIRG'ONIY MEROSI: NASHRLARDA UCHRAMAGAN HIKMATLAR MASALASI

D.Fayziyeva,
Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU tayanch doktoranti

Ilmiy rahbar: **S.Rafiddinov,**
f.f.n.

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.19839754

Annotatsiya. *Mazkur matnda turkiy tasavvufiy adabiyotda Ahmad Yassaviy maktabining yirik davomchisi sanalgan Sulaymon Boqirg'oniyning (Hakim ota) tariqat va shariat uyg'unligini ta'minlagan ijodiy merosi hamda uning hikmatlari manbalari masalasi yoritiladi. Tadqiqot jarayonida qo'lyozma va toshbosma nusxalar qiyosiy ko'zdan kechirilib, amaldagi nashrlarda uchramagan ayrim hikmatlarning aniqlangani ilmiy muammo sifatida qo'yiladi.*

Kalit so'zlar: *Yassaviylik, Sulaymon Boqirg'oniy (Hakim ota), hikmat, qo'lyozma, toshbosma, manbashunoslik, matnshunoslik, qiyosiy tahlil, tasavvuf.*

Аннотация. *В данном тексте освещаются творческое наследие Сулеймана Бакыргани (Хаким-ата), считающегося крупным продолжателем школы Ахмада Яссави в тюркской суфийской литературе, а также вопрос источников его хикматов, в которых обеспечивается гармония тариката и шариата. В ходе исследования были сопоставительно изучены рукописные и литографические списки, а в качестве научной проблемы поставлен вопрос о выявлении отдельных хикматов, не встречающихся в существующих изданиях.*

Ключевые слова: *яссавизм, Сулейман Бакыргани (Хаким-ата), хикмат, рукопись, литография, источниковедение, текстология, сравнительный анализ, суфизм.*

Abstract. *This text highlights the creative legacy of Sulaymon Boqirg'oniy (Hakim Ata), who is regarded as a major successor to the Ahmad Yassaviy school in Turkic Sufi literature, as well as the issue of the sources of his hikmats, in which the harmony of tariqa and sharia is ensured. In the course of the research, manuscript and lithographic copies were comparatively examined, and the identification of certain hikmats not found in currently available editions is posed as a scholarly problem.*

Keywords: *Yassavism, Sulaymon Boqirg'oniy (Hakim Ata), hikmat, manuscript, lithograph, source studies, textology, comparative analysis, Sufism.*

Kirish. Turkiy tasavvufiy adabiyot taraqqiyotida Yassaviylik maktabi nafaqat diniy-axloqiy g'oyalar tizimini, balki badiiy-estetik me'yorlarni ham shakllantirgan muhim manbaviy-madaniy hodisa hisoblanadi. Shu maktab davomchilari orasida Sulaymon Boqirg'oniy merosi alohida ahamiyat kasb etadi: bir tomondan, u Yassaviylik g'oyalarini turkiy she'riy tafakkur doirasida davom ettiradi; ikkinchi tomondan, uning hikmatlari turli davrlarda ko'chirilgan nusxalar orqali matn tarixining murakkab qatlamlarini yuzaga keltiradi. Shuning uchun Boqirg'oniy hikmatlarining manbalari, nusxalar o'rtasidagi farqlar, nashrlar tarkibiga kirmay

qolgan matnlarning aniqlanishi – matnshunoslik va manbashunoslik nuqtai nazaridan dolzarb ilmiy masaladir.

Adabiyotlar tahlili. Yassaviylik poetikasi, avvalo, xalqona ifoda, pand-nasihat ruhi, zikr va riyozat motivlari, shariat-tariqat-ma'rifat-haqiqat bosqichlarining izchil talqini bilan ajralib turadi. Sulaymon Boqirg'oniy mazkur an'anani davom ettirar ekan, hikmat shaklida axloqiy-ma'naviy tarbiya va tasavvufiy tajribani turkiy tilda ommalashtirishga xizmat qiladi. Bu jihatdan Boqirg'oniy ijodi nafaqat shogirdlik davomiyligi, balki maktab doirasida mustaqil poetik tajriba sifatida ham qimmatlidir.

Alisher Navoiy kabi mumtoz shoirlarimiz manbalarda Boqirg'oniyning zikr, irfon va suluk yo'lidagi maqomi e'tirof etilgani Yassaviylik silsilasidagi nufuzini ko'rsatadi. Biroq tazkira ma'lumotlari ko'proq umumiy tavsifga ega bo'lib, hikmatlar matnining real tarixiy shakllanish jarayonini to'liq yoritmaydi. Shu sababli masalani nusxalar va nashrlar qiyosi asosida ko'rish zarur bo'ladi. Sulaymon Boqirg'oniy ham tariqatda, ham she'riatda Ahmad Yassaviyning haqiqiy izdoshlaridan biri hisoblanadi. Alisher Navoiy o'zining «Nasoyim ul muhabbat» asarida u kishini shunday ta'riflaydi: *«Hakim ota oti Sulaymondur. Xoja Ahmad Yassaviyning murididur. Hamonki, bir kun Xoja tabxe (ovqat pishirish) buyurg'ondurlarki, matbaxiy (oshpaz) o'tun yetmaydur deb kelgandur. Alar as'hobg'a degandurlarki, yozidin o'tun terib kelturung va ul zamon yog'in yog'odur ekandur. Ashobkim, o'tun teribturlar, matbaxga (oshxonaga) kelguncha yog'in jihatidan o'tunlar ho'l bo'lg'ondur. Hakim ota tergan o'tunlarni to'nig'a chirmab, quruq kelturgandur. Xoja hazratlari degandurlarki, ey farzand, hakimona ish qilding va olarg'a bu laqab andin qolg'ondur va Hakim otag'a hikmat tili go'yo bo'lubtur».*

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda Sulaymon Boqirg'oniy hikmatlarining qo'lyozma va toshbosma nusxalari qiyosiy-matnshunoslik tamoyillari asosida o'rganildi, ularning o'qilish farqlari va variantlari aniqlashtirildi. Shuningdek, Ahmad Yassaviy an'analari bilan bog'liq holda hikmatlarning g'oyaviy-badiiy xususiyatlari manbashunoslik va semantik tahlil usullari orqali talqin qilindi. Natijada nashrlarda uchramagan hikmatlarni aniqlash va ularni ilmiy muomalaga kiritish uchun kompleks filologik yondashuv qo'llanildi.

Tahlillar va natijalar. Sulaymon Boqirg'oniyning she'rlari asosan axloqiy-ta'limiy, diniy-irfoniy mavzularda bitilgan bo'lib, ularning tub mohiyatini inson taqdiri va komillik haqiqatlari tashkil etadi. Biz Sulaymon Boqirg'oniy haqidagi ilmiy ishimiz jarayonida shoirning bir qator qo'lyozma va toshboshma asarlarini ko'zdan kechirdik, shu jumladan, yurtimizda nashr bo'lgan barcha hikmatlarini ko'rib chiqdik. Quyida biz mana shu nashrlarda mavjud bo'lmagan va yangi topilgan bir necha hikmatlarni kitobxonlar hukmiga havola etamiz.

102-hikmat

Rahmatidan ulush berdi ulug‘ Mavlim,
Seni xohlab, iymon ato qildi sanga.
Haq Muhammad Mustafoni Rasul ezdi,
Lutf bilan bag‘ishladi Qur’on sanga.
Qur’on – rahmat ganji, hikmat – durri samin
Qur’on bilan ravshan bo‘ldi ro‘yi zamin.
Ummat uchun olib keldi Ruhul-amin,
“Faqrao‘ mo tayassara” farmon sanga
Qur’on yo‘ldan ozmishlarni yo‘lga tortar,
Qur’on bilsang, izzatu ham hurmat ortar.
Ovoz birlan o‘qisalar bag‘ir o‘rtar,
Yo‘lanmagay yuz ming turli xazlon sanga.
Bu dunyoda o‘qi, Mavlim kalomini,
Eshitgaysan borib anda salomini.
Ujmah ichra berur ne’mat tamomini,
Huru qusur, g‘ilmon bilan vildon sanga.
Qur’on bilan qabug‘ini yopquvchi ul,
Ma’siyat nomalarin yuvg‘uvchi ul.
«Xayran yarah, sharran yarah» so‘rg‘uchi Ul,
Qur’on ulug‘ mo‘jizadur – burhon sanga.
Qur’on o‘qi, farmonini ichga bog‘la,
Yetsang azob oyatiga – qo‘rqib yig‘la.
Ul qo‘rqunchning o‘ti bilan yurak dog‘la,
Izim qilg‘ay ujmah yo‘lin oson sanga.
Qur’on bilmas – yo‘q soninda, nangmi bo‘lur?
Qaro jabin, oq ichinda mungmi bo‘lur?
Bilgan bilan, bilmaganlar tengmi bo‘lur?
Qur’on o‘qi, nodon sanga quloq tutsin.
Qur’on – Mavlim kalomidur bilgil haqqin,
Azob qilmas Mavlim seni, ani saqin.
O‘rganmishing unutsang san , bilgil yaqin,
Sazo bo‘lg‘ay Saqar – otliq zindon sanga.
Valloh, muni rost ayturman – Izim haqqi,
Bu Qur’onga o‘xshar kitob yo‘q ul taqi.
Yiroq bo‘lsang, tuni kuni Qur’on o‘qi,
Kerak bo‘lsa Firdavs otlig‘ bo‘ston sanga.

Haqin bilsang, arosatda shafe' bo'lg'ay,
Zaboniya changolidin sani yo'lg'ay.
«Bu qulungni yarlaqo!» deb Rabbdin qulg'ay,
Yarlaqagay o'shal kuni Rahmon sanga.
Arig' yuvnub, obdast olib, o'qu kitob,
Bir harfiga yigirma besh o'mg'il savob.
«Alloh» desang, «Labbayk» ovoz kelgay javob,
«Robbiy» desang, «Abdiy» degay Subhon sanga.
Kechti umrim qishi-yozi bo'ldi zavol,
Yozug'um ko'p, yorlagaqil, yo zul Jalol.
G'aribliqda qul Sulaymon o'zum malol,
Orzu qilg'um tug'qon yerim – Turkon sanga.

103-hikmat

Bu kun ruhim aytur: nafsga qilgil tavba,
Yigitlik quvvatlari qochmas burun.
Oxirat asbobini anuq olg'il,
Achchig' o'lim sig'roqini ichmas burun.
Omonat qo'ydi Alloh aziz iymon,
Toat bilan hisor yopsang bo'lg'ung omon.
Duo, tasbih aytaturgil, o'qu Qur'on,
Ko'z otlig' chirog'laring o'chmas burun.
Shayton yo'lin tutub, umrung yelga bermay,
«Kullu shay'in holikun» desa, olam o'lgay.
Malakul-mavt jon tilabu sanga kelgay,
Changal urub tamurlaring yechmas burun.
Din dushmanin do'st tutub, yeding-ichding,
Qarindosh mo'min sirin xalqqa ochding.
Xudoyingdin uyol emdi, hadding oshding,
Qaro yering, qornin yorib quchmas burun.
Munkar-Nakir savolig'a aygil javob,
Bu kun munda, yorin anda, etsang savob.
Qarindoshing go'rga ko'mub ustung savob,
Go'r ichinda yolg'iz qolib yotmas burun.
Ilohi, Sulaymong'a qilgil rahmat,
Jumlamizni yorlaqag'ay Qodir Ahad.
Botinidin madad qilg'ay qul Xoja Ahmad,
Madad qilg'ay ko'zung ochib,yummas burun.

104-hikmat

Bir kunda bir quliga uch yuz oltmish boqaro,
Andin ortug‘ na kerak qulg‘a Haqdin nazaro.
Xabar berdi Payg‘ambar: «kundin-kunga battar», deb
Dunyodag‘i ne’matlar kundin-kunga bitaro,
Sharm qolmas yuzida, mehr qolmas ko‘zida,
Shayton bo‘lub xotinlar erlaridin chiqaro.
***Mun’im bo‘lur munkarlar, xizmat qilur faqirlar**,*
Birta arpa nonig‘a iymonini sotaro.

Eldin elga bozurgon bug‘doy yuklab yururlar,
Za’farondek misqollab tortib, elga sotaro.
Bul hikmatni aytg‘uchi, g‘oyiblarni ko‘rg‘uchi,
Haq Rasuldin so‘rg‘uchi – qul Sulaymon netaro.

105-hikmat

***Kecha-kunduz darveshlar g‘ofil emas Subhondin**,*
Asal yanglig‘ lazzatni topti ular Qur’ondin.
Muborakdur yuzlari, Xizr yanglig‘ o‘zlari,
Iymon erur so‘zlari, toshib kelur ummondin.
***Darveshlarni etagin mahkam tutub ketoling**,*
Ul manzilga yetoling, judo bo‘lib dunyodin.
Darveshlarni odati – zikru samo’ suhbati,
Shamshir yanglig‘ nisbatye, tegar piri mug‘ondin.
***Elking berib alarg‘a, mushtoq bo‘lib diydorg‘a**,*
Qo‘l uzatma murdorg‘a, umid tutub iymondin.
G‘aflat ichra kim topsa, subh o‘rlab tong otsa,
Haq qullug‘in unutsa, yomon emish hayvondin.
***Sof aylag‘il dilingni, ravshan qilib diningni**,*
Saqla go‘yo tilingni, g‘iybat bilan yolg‘ondin.
Qahhor Izim qahr etsa, a’molingni mahv etsa,
Tamug‘ sari elitsa, azob qilur alvondin.
***Ilik tutsa bandag‘a, isyonlik sharmandag**a,*
Yuz ming mendek gandag‘a, hur yuborur rayhondin.
Qul Sulaymon guftorin aydi xalqqa na borin:
Tutub nafsing mahorin, qo‘rqar doim Qahhordin.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, Sulaymon Boqirg‘oniy Ahmad Yassaviy maktabining nufuzli davomchisi sifatida turkiy tasavvufiy adabiyot taraqqiyotida

muhim o‘rin egallaydi. Tadqiqot jarayonida shoirning qo‘lyozma va toshbosma manbalari, shuningdek, mamlakatimizda chop etilgan hikmatlar nashrlari qiyosiy ko‘zdan kechirildi. Qiyosiy tahlil natijasida amaldagi nashrlarda uchramagan ayrim hikmatlar aniqlanib, ularni ilmiy muomalaga kiritish zarurligi asoslandi. Bu topilmalar Boqirg‘oniy merosining matn tarixini to‘ldirish, nusxalararo farqlarni aniqlash hamda Yassaviylik an’anasining davomiyligini yanada aniqroq yoritishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Navoiy, Alisher. *Mukammal asarlar to‘plami*. 20 tomlik. 17-tom: «Nasoyim ul-muhabbat». – Toshkent: Fan, 2001.
2. Rafiddinov, Sayfiddin; Hasan, Nodirxon. *Xo‘ja Ahmad Yassaviy. Sulaymon Boqirg‘oniy*. – Toshkent: O‘zbekiston nashriyoti, 2022. (ISBN: 978-9943-8722-1-9).
3. Yassaviy, Ahmad. *Devoni hikmat*. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 1992.
4. Boqirg‘oniy, Sulaymon (Hakim ota). *Hikmatlar* (nashrga tayyorlovchi: E. Ochilov). – Toshkent, 2013.
5. Bozorova, M. «O‘zbek adabiyoti tarixida Sulaymon Boqirg‘oniy ijodining o‘rganilishi…» // *Sciyence and Research* (inlibrary.uz), 2024.
6. Saydullayeva, D. I. «Nasoyim ul-muhabbat»da Ahmad Yassaviy zikri” (maqola). – 2023. (Adabiyotlar qismida: Navoiy MAT 17-tom, Fan, 2001 keltiriladi).